

JAMIYATNING MA'NAVIY YANGILANISHIDA XOTIN QIZLARING O'RNI.**G'.Xolmurodov***O'zMU o'qituvchisi***S.Valiyeva***O'zMU talabasi*

Annotasiya: *Ushbu maqolada jamiyat hayotida xotin-qizlarning o'rnini mustahkamlanib borishi hamda ularga berilayotgan keng imkoniyatlarni davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi, ayniqsa onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilik asoslarini yaratilishi, ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirishda ijtimoiy, huquqiy va boshqa sohalarida foaliyat yuritayotgan xotin-qizlar dush kelayotgan turli xil to'siqlarni bartaraf etish borasidagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari bo'yicha fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar. *Xotin- qizlarning ijtimoiy-madaniy hayotidagi faol ishtiroki, xotin-qizlar huquqi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, oila instituti, xalqaro va milliy qonunchilik.*

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bilan mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash uchun shart sharoitlar tug'ildi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida davlat va jamiyat tomonidan xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi ishtiroklari, oilani har tomonlama rivojlantirish, yoshlar tarbiyasida oilaning o'rnini yanada yuksaltirish kabi qadriyatlarga ham ayollarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib muhim e'tibor berila boshlandi. O'zbekiston Respublikas konstitutsiyasi va amaldagi qonunlarning barchasida xotin-qizlarning u yoki bu huquqlari, ijtimoiy turmush tarzini ya'ni ijtimoiy institutlar tomonidan turli ko'rinishdagi zo'ravonliklardan himoya qilinishining o'zi ham bu sohaga katta ahamiyat berilayotganligini anglatmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimiz hayotida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan chiqarilayotgan farmonlar, farmoyishlar hamda qonun hujjatlari zahirida O'zbekiston Respublikasida aholini barcha qatlamlariga e'tibor qaratilayotganligi hamda bevosita qo'llab-quvvatlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan ayollarning ijtimoiy himoyasiga doir Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so'zlaridan bilishimiz mumkin – "Barchamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan ayol zoti haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalambor, bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib voyaga yetkazgan Ona siymosi oldida bosh egib ta'zim qilamiz. Yer yuzida muqaddas degan so'zga eng munosib zot bu - avvalo, Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug'lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaflab muhtasham haykallar bunyod etilgani ham shundan dalolat beradi".[1]

Xotin-qizlarning ijtimoiy-madaniy hayotidagi faol ishtiroki mustaqillik yillarida respublikamiz ijtimoiy-madaniy jarayonlarida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada oshdi. Bu kabi ko'rsatkichlarning fan, ta'lim, madaniyatning turli sohalarida yaqqol ko'zga tashlandi. Bugungi kunda xotin-qizlarning jamoat tashkilotlari doirasidagi faolligi sezilarli darajada oshib bormoqda. Ularning ko'pchiligi, asosan, Toshkentda va viloyat markazlarida ish olib bormoqda. Afsuski, xotin-qizlar muommosi ko'p bo'lgan qishloqlarda ularning faoliyati past. Ammo, umuman olib qaraganda, mamlakatda xotin-qizlarning nohukumat tashkilotlar soni tobora ko'payib bormoqda. Bu shundan dalolat beradiki, ayollar ushbu tashkilotlarini o'z salohiyatlaridan foydalanish imkoniyati, shuningdek, o'z muommolarini bayon etishning real vositasi deb bilmoqdalar.

Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlashda xalqaro va milliy darajadagi qonunchilik asoslari bilan hozirgi kunda tartibga solinmoqda. Xususan, 1945 yil 26-iyundagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi, 1948 yil 10-dekabrda Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1966 yilda qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlar, inson huquqlarini himoya qilish xalqaro tizimini tashkil etuvchi ko'pdan-ko'p xalqaro bitimlardir. Ularda erkak va ayollar uchun yagona bo'lgan inson huquqlari umumiy konsepsiyasini tashkil etuvchi salkam 70 ta xalqaro standartlar qayd etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlar ularni ijtimoiy hayotga tadbiq etishlari kerak. U shaxsning ijtimoiy himoyalanganligini, uning shaxsiy erkinligini, uning jamoat va davlat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"[2] gi PF-5325-sonli Farmoni, 2019 yil 7 martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora tadbirlari to'g'risidagi" PQ-4235-son Qarori, 2019 yil 2 sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni, 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi[3], hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmon bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Hozirgi kunda Inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va standartlar asosida 1995-yil "Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya", 1997-yil 30-avgustdagi "Xotin-qizlarning siyosiy

huquqlari to'g'risidagi Konvensiya", 1997-yil 30-avgustdagi "Mehnat va ish bilan bandlik sohasidagi kamsitish to'g'risidagi Konvensiya"larni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik hujjatlarini ularga muvofiqlashtirish yuzasidan anchagina ishlar qilindi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga doir 100dan ziyod qonun xujjatlari qabul qilindi. Milliy qonun hujjatlarini xalqaro huquq me'yorlariga muvofiqlashtirishning birinchi bosqichi 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish bilan nihoyasiga yetdi. Ikkinchi bosqichda milliy qonunchilikning alohida tarmoqlarini xalqaro huquqning me'yorlariga muvofiqlashtirishni ta'minlash ishlari boshlandi va davom etmoqda. Davlat inson huquqlariga, shu jumladan xotin-qizlarning huquqlariga doir bir qator xalqaro shartnomalar va konvensiyalarda mustahkamlangan eng muhim tamoyillarni respublika qonun xujjatlarida hisobga olishga qaratilgan aniq-ravshan chora-tadbirlarni ko'rmoqda. O'zbekistonda xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash va ularning jamiyatdagi rolini oshirish, onalik va bolalikni, oilani muhofaza qilish davlat dasturining yaxlit konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Konsepsiya erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar siyosatini rivojlantirishga, ish bilan ta'minlash sohasida jins belgisi bo'yicha ayollarni kamsitishni tugatishga, ular mehnatiga to'lanadigan haqni oshirishga va xizmat pog'onalaridan ko'tarishga qaratilgan. Oilani mustahkamlash, ona va bola salomatligini muhofaza qilish ham ustun vazifalar hisoblanadi.

Xotin-qizlarning huquqlarini, onalik va bolalikni himoya qilishning qonuniy asoslari bo'lishiga qaramay, bu sohada qilinadigan ishlar hali ko'p. Haqiqiy hayotda ayol ayni jinsiga ko'ra hali ham ezilgan, kamsitilganligicha qolmoqda. Bu esa asosan, tasavvurlar va ko'rsatmalar bilan asoslanadiki, bular birinchi navbatda xotin-qizlarni faqat ist'emolchilar sifatida (ish bilan bandlik sohasida, ijtimoiy nafaqalar va bolalar uchun nafaqalar olishda va hokazo) hisobga olishga qaratilgan ijtimoiy siyosatda o'z asoratini qoldirmoqda. Xotin-qizlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etish, ya'ni yanada kengroq va chuqurroq sherikchilik siyosatini joriy etish sust bormoqda. Xotin-qizlarni ana shu siyosatning o'zini ishlab chiqishda qatnashishlarini kengaytirishga qaratilgan davlat tashabbusi bo'lishiga qaramay, shunday bo'lmoqda. Ayollar diniy cheklanishlar og'irligini ham boshlaridan kechirmoqdalar. Jamiyatda ayollarning erkaklarga qaramligi diniy dunyoqarash konsepsiyasi, ayollarning siyosiy faoliyatiga salbiy munosabat saqlanib qolmoqda. Islomning ayol kishining asosiy vazifasi oila ekanligi to'g'risidagi mafkurasi hali ham kuchli. Jamiyat turmushga chiqqan ayolning ishlashini qoralamasada, u ayollarning ishlashi aholining gender madaniyati holatiga noxush ta'sir qilishidan, huquqiy bilimlar darajasining pastligidan, inson huquqlarini, shu jumladan ijtimoiy hayotni demokratlashtirish umumiy jarayonining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish muhimligini tushunib yetmaslikdan tashvish bildirgan holda, odamlarning dunyoqarashiga yashirin ta'sir o'tkazmoqda. Ayni vaqtda fikrlashning patriarxal usuli, ayrim rahbarlar va mansabdor shaxslarning gender bilimsizligi, kichkintoylarni

an'anaviy ruhda tarbiyalashga qaratilgan jamiyatda gender stereotiplarining saqlanib qolganligi kamsitish hollariga yo'l qo'yilayotganligining sababidir. Mana shunday xurofotlar, ijtimoiy ko'rsatmalar, me'yorlar va stereotiplar xotin-qizlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni cheklab qo'ymoqda, fuqarolarning tinchligi va ijtimoiy totuvligini, demokratiyani mustahkamlashni to'xtatib qo'ymoqda, mamlakatda madaniylashgan tartibni va yangi ruhiy-ma'naviy turmush tarzini qaror toptirishga ko'maklashmayapti.

Xotin-qizlarning huquqlarini, onalik va bolalikni himoya qilishning qonuniy asoslari bo'lishiga qaramay, bu sohada qilinadigan ishlar hali ko'p. Haqiqiy hayotda ayol ayni jinsiga ko'ra hali ham ezilgan, kamsitilganligicha qolmoqda. Bu esa asosan, tasavvurlar va ko'rsatmalar bilan asoslanadiki, bular birinchi navbatda xotin-qizlarni faqat ist'emolchilar sifatida (ish bilan bandlik sohasida, ijtimoiy nafaqalar va bolalar uchun nafaqalar olishda va hokazo) hisobga olishga qaratilgan ijtimoiy siyosatda o'z asoratini qoldirmoqda. Xotin-qizlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etish, ya'ni yanada kengroq va chuqurroq sherikchilik siyosatini joriy etish sust bormoqda. Xotin-qizlarni ana shu siyosatning o'zini ishlab chiqishda qatnashishlarini kengaytirishga qaratilgan davlat tashabbusi bo'lishiga qaramay, shunday bo'lmoqda. Ayollar diniy cheklanishlar og'irligini ham boshlaridan kechirmoqdalar.

Jamiyat turmushga chiqqan ayolning ishlashini qoralamasada, u ayollarning ishlashi aholining gender madaniyati holatiga noxush ta'sir qilishidan, huquqiy bilimlar darajasining pastligidan, inson huquqlarini, shu jumladan ijtimoiy hayotni demokratlashtirish umumiy jarayonining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish muhimligini tushunib yetmaslikdan tashvish bildirgan holda, odamlarning dunyoqarashiga yashirin ta'sir o'tkazmoqda. Ayni vaqtda fikrlashning patriarxal usuli, ayrim rahbarlar va mansabdor shaxslarning gender bilimsizligi, kichkintoylarni an'anaviy ruhda tarbiyalashga qaratilgan jamiyatda gender stereotiplarining saqlanib qolganligi kamsitish hollariga yo'l qo'yilayotganligining sababidir. Mana shunday xurofotlar, ijtimoiy ko'rsatmalar, me'yorlar va stereotiplar xotin-qizlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni cheklab qo'ymoqda, fuqarolarning tinchligi va ijtimoiy totuvligini, demokratiyani mustahkamlashni to'xtatib qo'ymoqda, mamlakatda madaniylashgan tartibni va yangi ruhiy-ma'naviy turmush tarzini qaror toptirishga ko'maklashmayapti.

Xotin-qizlarning o'z o'zini past baholashi g'oyat tashvishli tamoyil bo'lib qolmoqda. Gender tengsizlikni ular hayot normasi deb qabul qilmoqdalar, ular xatto erkaklarga qaraganda ko'proq patriarxaldirlar. Juvonlar ayollarning siyosiy sahnadan ketishlarini va oila muammolariga nisbatan hukm surayotgan uzoq jimjitlikni tabiiydek qabul qilmoqdalar.

Hukumat xotin-qizlar uchun huquqiy va ijtimoiy kafolatni ta'minlash yuzasidan dasturiy hujjat bo'lib qolgan maxsus konsepsiyani ishlab chiqdi. Ana shu konsepsiya asosida "Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash", "Ekologiya va ayol", "Xotin-qizlar

mehnatini ijtimoiy himoyalash”, “Ayol, oila va mahalla”, “Sogʻlom avlod sogʻlom jamiyat asosi” deb ataluvchi va boshqa amaliy dasturlar ishlab chiqildi. Bunday tadbirlar ayollar maqomini mustahkamlashga qaratilgan, xotin-qizlar harakatini rivojlantirishga ijobiy taʼsir oʻtkazdi.[4]

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, Oʻzbekiston Respublikasida xotin-qizlarning muommolarini oʻrganishda, ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirishda, ularning turli soha va tarmoqlarda oʻz qobiliyat va imkoniyatlarini roʻyobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga soʻzsiz rioya qilinishini taʼminlash, onalik va bolalikni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini hozirgi kunda sifat jihatida yangi bosqichga olib chiqilganligi, ayollarning oila va jamiyatimiz hayotidagi oʻrni va mavqeni mustahkamlashga, oʻz salohiyatlarini toʻla namoyon etayotganliklarini hamda oilalardagi ijtimoiy-maʼnaviy muhitni yanada sogʻlomlashtirishga xizmat qilayotganligini, hayotning turli sohalari, jumladan, ayollar ahvolini yaxshilash, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshib borayotganligini koʻrishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1.Sh. M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz – Toshkent: Oʻzbekiston NMIU, 2017. – 592 b.

2.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 2 fevraldagi Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-5325-sonli Farmoni.

3. Sh.M.Mirziyoyev Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: Oʻzbekiston. NMIU, 2020. – 80 b.

4.S.Toʻychieva, Sh. Norbekov. Ijtimoiy siyosat – Oʻquv qoʻllanma– Tashkent, 2016.